

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2024, № 2 (4)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР

Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES

Scientific journal

ТОШКЕНТ-2024

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Ильяс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАХРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Академик

Ўзбекистон Миллий университети

Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Холиқулов Ахмад Баймахаматович
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Убайдуллаева Барно Машрабжонова
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Нарбеков Абдикамил Вафаевич
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Замонов Акбар Тургинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), профессор
Тошкент халқаро Кимё университети

Кандахаров Анваржон Хасанович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Холиқулова Шахноза Боймухамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Навоий Давлат педагогика институти

Нормуродов Дильмурод Рахматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Алиназарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Усаров Умид Абдумавлянович
Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Давлат Жаҳон тиллари университети

Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Галиба,
Исторический факультет Национального
Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/> ; E-mail:
I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib
Faculty of history of the National university of
Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/> ; E-mail:
I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА/СОДЕРЖАНИЕ/CONTENT

1. Адилов Аброр Анварович СОВЕТ ХОКИМИЯТИНИНГ ИЛК ДАВРИДА ТУРКИСТОН ЎЛКАСИДА АМАЛГА ОШИРГАН ДИНИЙ СИЁСАТИДАГИ ВАКФ МАСАЛАСИ	4
2. Abduraxmonova Kamolaxon Ravshanjon qizi TIBBIYOT ANTROPOLOGIYASI O'RGANILISH TARIXSHUNOSLIGI	20
3. Бахранов Шерзад Таштурсунович., Сирлиев Эркин Назарович ИЗ ИСТОРИИ ТАМОЖЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РУССКО-СРЕДНЕАЗИАТСКОЙ ТОРГОВЛЕ	34
4. Замонов Акбар Тургинович ШАЙБОНИЙ АБДУЛЛАХОН ШАХСИЯТИ ВА УНИ ЎРГАНИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЖИХАТЛАРИ	45
5. Qodirova Ra'no Mamirjonovna O'ZBEKISTON SSR MAKTABLARIDA 1930-YILLARNING IKKINCHI YARIMIDA TARIX FANINI O'QITILISHI	60
6. Maxmudova Muazzamxon Sultonmaxmudovna TEMURIYLAR SALTANATIDA SUG'ORISH TIZIMI MASALALARINI ROSSIYA IMPERIYASI VA SOVET DAVRI MANBALARIDA YORITILISHI	70
7. Нормуродов Дилмурод Рахматуллаевич XV – XVI АСРНИНГ БОШЛАРИГА ОИД “ЯНГИ САНГАНАК” ХАЗИНАСИДАГИ САМАРҚАНД ТАНГАЛАРИ ХУСУСИДА	79
8. Рахманова Одинахон Равшанбековна САММАРСКИЙ ПЕРИОД ВО ВРЕМЕНА ПРАВЛЕНИЕ ХАЛИФОВ АЛЬ-МУТАСИМА И АЛЬ- ВАСИКА	93
9. Сиддиков Равшан Бердимуратович ОЛИЙ ТАЪЛИМНИНГ ГЛОБАЛЛАШУВИ ТАРИХИНИ ЎРГАНИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЖИХАТЛАРИ	101
10. Примов Мухиддин Омонович ЎЗБЕКИСТОНДА КАРТОГРАФИЯ МУТАХАССИСЛИКЛАРИ ОЧИЛИШИ ВА КАРТОГРАФ КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ МАСАЛАСИГА ДОИР	118
11. Hakimova Shoiri Sag'dullayevna O'ZBEKISTON ELEKTROENERGETIKA SANOATIGA XORIJY SARMOYALARNING JALB ETILISHI	135
12. Hakimova Saida Baxtiyorovna O'TOSHKENT BEKLIGI T. BURNASHEV VA M.POSPELOV NIGOHIDA	150
13. Shamsiyeva Maxfuzaxon Xuja qizi HAZRATI IMOM MAJMUASIGA TARIXIY SAYYONAT	156
14. Юнусова Хуршида Эркиновна ЎЗБЕКИСТОН ИЖТИМОЙ ҲАЁТИГА СОВЕТ МАФКУРАГА МОСЛАШТИРИЛГАН ЯНГИЧА УРФ ОДАТЛАРНИНГ КИРИБ КЕЛИШИ ҲАҚИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР	162

Shamsiyeva M. X.
T.f.f.d., (PhD) dotsent
Farg‘ona davlat universiteti
shamsiyevamaxfuzaxon@gmail.com

HAZRATI IMOM MAJMUASIGA TARIXIY SAYYOHAT ANNOTASIYA

Ushbu maqolada Toshkent shahrida joylashgan Hazrati Imom majmuasi, Qaffol ash-Shoshiy va uning maqbarasi, Mo‘yi Muborak va Baroqxon madrasalari, Tillashayx masjidining barpo etilish tarixi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Hazrati Imom majmuasi, Qaffol ash-Shoshiy, maqbara, masjid, madrasa, inshoot, sharq me‘morchiligi, sag‘ana.

Шамсиева М. Х.
PhD., доцент
Ферганский государственный университет
shamsiyevamaxfuzaxon@gmail.com

ИСТОРИЧЕСКОЕ ПУТЕШЕСТВИЕ В КОМПЛЕКС ХАЗРАТИ ИМАМА АННОТАЦИЯ

В данной статье освещена история строительства комплекса Хазрат Имам, Каффала аш-Шоши и его мавзолея, медресе Мойи Мубарак и медресе Баракхана, мечет Тиллашейх расположенных в городе Ташкенте.

Ключевые слова: комплекса Хазрат Имам, Каффала аш-Шоши, мавзолей, мечет, медресе, строительство, Восточная архитектура, сагана.

Shamsiyeva M. X.
PhD., Associate professor
Fergana state university
shamsiyevamaxfuzaxon@gmail.com

HISTORICAL JOURNEY TO THE KHARZRATI IMAM COMPLEX ABSTRACT

In this article, the history of the construction of Hazrat Imam complex, Qaffol ash-Shoshi and his mausoleum, Moi Mubarak and Baraqkhan madrasa, Tillasheikh mosques located in Tashkent city is covered.

Key words: Hazrat Imam complex, Qaffol ash-Shoshi, mausoleum, mosque, madrasa, construction, Oriental architecture, sagana.

KIRISH

“Sharq darvozasi” nomiga musharraf bo‘lgan Toshkent – nafaqat Markaziy Osiyo, balki jahondagi qadimiy shaharlardan biri bo‘lib, dunyo sivilizatsiyasi rivojiga o‘z munosib hissasini qo‘shgan.

Bu azim shaharning 2009-yilda 2200 yillik yubiley to‘yi keng nishonlandi. Toshkentda ko‘plab tarixiy ziyoratgohlar, maqbara, madrasa, masjidlar, turli xil markazlar, majmualar va boshqalar joylashgan. Shunday tarixiy ziyoratgohlardan biri Hasti Imom majmuasidir. Majmua olim va din arbobi, birinchi Toshkentlik imom Qaffol ash-Shoshiy dafn etilgan joyda qurilgan. Bugungi kunda me‘moriy ansamblning umumiy maydoni 2 gektardir.

Hazrati Imom majmuasi – Qaffol ash-Shoshiy maqbarasi, Mo‘yi Muborak madrasasi, Tillashayx va Namozgoh masjidleri va Baroqxon madrasasidan iborat. Hazrati Imom majmuasi 1000 yildan ortiq vaqtdan beri O‘zbekistonda islom madaniyatining markazi bo‘lib kelgan [1]. Hazrati Imom majmuasiga qarashli maydon bizning davrimizda Markaziy Osiyo me‘morchiligining eng yaxshi an‘analaridan foydalangan holda qurilgan bo‘lib, ko‘k gumbazleri porlab turgan katta Jome Juma masjidi bilan yakunlanadi. Masjidga Qorasaroy tomondan kirish qismida har biri 56 metrli ikkita minora bor.

2007-yil boshida Birinchi Prezidentimiz I.Karimov farmoni bilan Hazrati Imom (Hastimom) jamoatchilik jamg‘armasi tashkil etilib, Hazrati Imom majmuasining asl tarixiy qiyofasini tiklash bu yerda keng ko‘lamli qurilish-ta‘mirlash va obodonchilik ishlari olib borildi. Qisqa vaqt ichida O‘zbekiston musulmonlari idorasining yangi binosi, 5 ming namozxonga mo‘ljallangan hashamatli jome masjidi va uning 56 metrli ikki minorasi, Islom mahadi binosi qurib bitkazildi, Majmua tarkibidagi “Tilla Shayx”, “Mo‘yi muborak”, “Namozgoh” masjidleri, Baroqxon madrasasi va boshqa obidalar qayta ta‘mirlandi, katta obodonchilik ishlari olib borildi, yangi maydonlar, yo‘llar barpo etildi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Majmua nomining kelib chiqishi bevosita Qaffol ash-Shoshiy bilan bog'liqdir. U kishining to'liq ismlari Abu Bakr Muhammad ibn Ali ibn Ismoil al-Qaffol ash-Shoshiy (903-976) bo'lib, fiqh, hadis, usul, tilshunoslik ilmlari bo'yicha o'xshashi yo'q alloma edi. Qaffol ash-Shoshiy imomlik darajasiga erishgan. Shoshiy deb atalishining zamirida Toshkentda tug'ilganiga ishora bor. Al-Qaffol esa u kishining hunarmand ekanligi bilan bog'liq, ya'ni qulfsozlik bilan tirikchilik qilgan. Qaffol qulfsoz, qulfchi demakdir.

Qaffol ash-Shoshiy doimo ilm-ma'rifat istagida qo'nim topmay, bir o'lkadan ikkinchisiga — ilm chashmalaridan bahramand bo'lish niyatida Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarini kezadi, Hijoz, Bag'dod, Damashq kabi shaharlarga boradi, u yerlarda zamonasining ko'zga ko'ringan olimlaridan ilm-ma'rifat o'rganadi.

Abu Bakr Qaffol ash-Shoshiyning shaxsiyati va ilmiy salohiyati nafaqat o'rta asr Sharq mualliflari, balki G'arb olimlari tomonidan ham e'tirof etiladi. Sharqshunos olimlardan K.Brokkelman va V.Bartoldlar Qaffol ash-Shoshiy ilmiy faoliyatiga yuksak baho berishgan [2].

Arab olimi va bibliografi ibn Xallikon (1211—1282) o'zining “Vafoyt al-a'yon” (“Ulug' kishilar vafoti”) degan asarida imomlik maqomiga erishgan olim haqida shunday ma'lumotlarni beradi: “Qaffol ash-Shoshiy hadis ilmini bilgan, tilshunos, shoir odam edi. O'sha vaqtda Movarounnahrda u kishiga teng keladigan olim yo'q edi. Bu kishi Xuroson, Iroq, Hijoz, Shom va boshqa o'lkalarga sayohat qilib, hamma yerda ham nom taratdi... u kishining ko'p asarlari bo'lgan” [3].

Aytish joizki, tafsir, hadis, fiqh va adabiyotga doir ko'plab manbalarda Imom Qaffol ash-Shoshiyning asarlaridan iqtiboslar keltirilgan. Bu ilmiy e'tiroflar esa uning islom ilmlari bobida yetuk alloma ekanligini ko'rsatadi. Toshkentning xalq orasida “Hastimom” (Hazrati Imom) deb ataladigan, istiqlol tufayli obod maskanga aylangan tabarruk go'shasi ul zotga nisbatan chuqur ehtirom namunasidir [4].

Abu Bakr Qaffol ash-Shoshiy “Hazrati Imom” majmuasi hududidagi Kaykovus arig'i yoqasidagi qabristonga dafn etilgan. 1542-yilda fiqh, hadis ilmi allomasining qabri me'mor G'ulom Husayn tomonidan qaytadan bunyod etilgan edi.

Maqbara XVI asr me'morchiligining nodir asari bo'lib, to'rt tarafi moviy gumbazli to'rtburchak shaklda. Bino pishgan g'ishtdan qurilgan, me'morustalarning ismi va inshootining bunyod etilgan sana keltirilgan tarixiy yozuv tushirilgan koshinlar bilan ziynatlangan. Oynalari Toshkentga xos an'anaviy ganch panjaralar bilan bezalgan.

Qaffol Shoshiy maqbarasi xonaqohi assimetrik rejalashtirilgan, ko'p hujrali noyob maqbara turiga kiradi. Xonaqohi majmuiy inshoot ko'rinishida bo'lib, o'z ichiga kelyalar, masjid, dahma, oshxona va boshqa xonalarni oladi. Ular ziyoratchilarga yashash hujralarida qulaylik yaratish uchun qilingan.

Qaffol Shoshiy qabrtoshining ikki tomoniga chillaxona qo'shilgan bo'lib, maqbaraning bo'rtgan eshigida joylashgan. Bu yerdan sal pastroqda o'g'illari "Buyuk Imom" – Muhammad at-Shoshiy va Nizomiddin Shoshiy maqbaralari joylashgan. Maqbarada, shuningdek, Bog'doddan Toshkentga kelib, shu yerlarda qolib ketgan Muhammad Nomi va uning otasi Xoja Kalonlar ham dafn etilgan. Bosh binoning janubida kichik hovlida qadimiyroq ko'mish joyi o'rin olgan bo'lib, "sag'ana" nomini olgan. Maqbaraga kirishda Hofiz Ko'haqiy va Ulug'bekning nabirasi, buyuk olimning o'quvchisi va izdoshi Ali Qushchi dafn etilgan. Kirish qismining chap tarafida taniqli Hirotlik shoir, Baroqxonning ustози Zayniddin Vasifiy dafn etilgan [5].

Majmuada joy olgan yana bir tarixiy yodgorliklardan biri bu – Baroqxon madrasasidir. Bu ilm dargohi Shayboniylar sulolasi vakili Navro'z Ahmadxon (Baroqxon) tomonidan barpo etilgan. U Movorounnahrni boshqargan kezlarida obodonchilik ishlariga katta e'tibor berdi. Masjid, madrasa, kavonsaroylar qurdirtdi. Ulardan biri Baroqxon madrasasidir. Uning qurilish yillari 1531-1532-yillarga to'g'ri keladi.

Inshoot Sharq me'morchilik an'analarini o'zida mujassamlashtirgan gumbazsimon, "Chor" uslubda bunyod etilgan. Ushbu obida o'z davrida qurilgan boshqa inshootlardan devorlarining qalinligi va nisbatan dabdabadan holiligi bilan ajralib turadi. 1904-1905-yillarda Toshkentlik usta Xoja Abdul Qosim tomonidan qilingan ta'mirdan so'ng hozirgi ko'rinishga keltirilgan. Inshoot o'z davrida ilm

muassasasi, Ikkinchi jahon urushi yillarida ombor vazifasini bajargan bo'lsa, mustaqillikdan so'ng uning vazifasi o'zgardi, hozirda obida muqaddas ziyoratgohlarimizdan biri bo'lib kelmoqda.

Ta'kidlash joizki, 2007-yilda restavratsiya ishlari amalga oshirilib, Suyunchxo'ja va egasi noma'lum bo'lgan maqbaralar ustidagi gumbazlar qayta ta'mirlandi. Hozirgi kunda Baroqxon madrasasida O'zbekiston Musulmonlari idorasi joylashgan [6].

Mo'yi Muborak madrasasi ham Hazarati Imom majmuasining bir qismini tashkil qiladi. U XIX asrda, ya'ni 1856-1857-yillarda Toshkent hokimi Mirzo Ahmad qushbegi tomonidan barpo etilgan. Bu madrasa payg'ambarimizning muborak mo'ylarini saqlashga xizmat qilgan. Shuning uchun ham u Mo'yi Muborak deb ataladi. Bundan tashqari madrasada bir necha yillar davomida Usmon Mus'hafi saqlanib kelingan. Bu ham uning qadrini oshirgan, albatta.

Me'moriy obida mustaqillik yillarida ta'mirlandi. Jumladan, Toshkent shahrining 2200 yilligi munosabati bilan shahardagi me'moriy obidalar qatorida Mo'yi Muborak madrasasi ham ta'mirlandi. Me'moriy obida atroflari ko'kalamzorlashtirildi. Bu ilm maskani tomiga yangi gumbaz o'rnatildi. Ganchkori bezaklar Nodir Hoshimov, Sharofuddin Ziyovuddinov, Bahodir Ashirov kabi tajribali ustalar qo'lidan chiqdi. Inshoat YUNESKO tashkilotining Butun jahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritilgan [7].

Tillashayx masjidi ham ushbu majmuadan joy olgan bo'lib, ushbu tarixiy yodgorlik 1890-1902-yillar davomida barpo etilgan. Manbalarda Tillashayx Xo'ja Ubadulla Ahror avlodlaridan biri ekanligi aytiladi. U yoshligidan savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullangan va keyinchalik taqvodor savdogar bo'lib hayot kechirgan. U Xitoydan qo'y olib kelib sotish bilan shug'ullanib, bir yillik foydasidan ushbu masjidni bunyod ettirib, mo'min-musurmonlarga tuhfa qiladi. Tillashayx sho'rolar davrida o'z oilasi bilan Sharqiy Turkistonga ketishga majbur bo'ladi va o'sha yerda olamdan o'tadi [8].

XULOSA

Tillashayx masjidi biroz vaqt faoliyat yuritgandan so'ng Chor Rossiyasi tomonidan faoliyat to'xtatilgan. Masjid 1945-yil 7-mayda qaytadan ochilgan. Masjid 1955-1963-yillarda usta Shirin Murodov tomonidan ta'mirlangan. 2007-yil Hastimom majmuasi bunyod etilgan davrda me'moriy obida atrofidagi e'tiborga molik obidalar ham ta'mirlandi. Masjid YUNESKO tashkiloti tomonidan Butun Jahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritildi [9].

Hazrati Imom ansambli bugunga kelib yaxlit qiyofga ega bo'lib shakllandi. Uning obodonchiligi yo'lida amalga oshirilayotgan ishlar tariximizning qayta tiklashga, yosh avlodga asrab-avaylab yetkazish orqali ularda faxrlanish tuyg'usini shakllantirish va buyuk ajdodlar ilmiy-ma'naviy merosini o'rganishga hamda "Uchinchi Renesans" ga zamin bo'lib xizmat qiladi.

IQTIBOSLAR / ЧОККИ / REFERENCES

1. <https://myday.uz/uz/pamyatniki/xazrati-imom-mazhmuasi>
2. Jumayeva N. Sharq allomalarining ilmiy merosi. Buxoro: Durdona, 2020, – B. 92-93-104.
3. <https://e-tarix.uz> >124-qaffol-shoshiy.
4. Jumayeva N. Sharq allomalarining ilmiy merosi. Buxoro: Durdona, 2020. –B. 104.
5. <https://arboblar.uz/uz/people/kaffal-shashi>
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Baroqxon_madrasasi
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Mo%CA%BByi_Muborak_madrasasi
8. https://uz.wikipedia.org/wiki/Tillashayx_masjidi
9. Zamonov A. Tarix fanidan olimpiadaga tayyorlanamiz. –Toshkent, 2012.–B. 77-78.